

BIOLOGIYANI FANINI O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN METODLAR.

Namangan viloyati Chust tumani

46- umumiy o'rta talim maktabi

biologiya fani o'qituvchisi

Botirova Pokiza

Annotatsiya: Ushbu maqolada biologiya fanida zamonaviy texnologiyalardan foydalanish metodlari haqida so'z boradi. Dars jarayonida ishlatiladigan ko'plab metodlar haqida batafsil mazmun mohiyati yoritilgan.

Kalit so'zlar: biologiya fani metodlari, o'qituvchi, o'quvchi, ta'lim, o'quv jarayoni pedagogik faoliyat.

O'qitishning mantiqiy metodlari guruhi induktiv, deduktiv, bosh g'oyani ajratish, qiyoslash, umumlashtirish metodlaridan iborat bo'lib:

a) induktiv metod — xususiy faktlarni muammoli bayon qilish, o'quvchilar faoliyatini xususiyan umumiy xulosalar chiqarishga yo'naltirish, muammoli topshiriqlarni berish uslubi;

b) deduktiv metod — umumiy qonunlarni bayon qilish, o'quvchilarning faoliyatini umumiydan xususiy xulosa chiqarishga yo'naltirish uslubi;

d) tahlil metodi — axborotni anglab idrok etish, o'rganilgan obyektlarning o'xshashlik va farqli tomonlarni aniqlash, o'rganilgan ob'yektlarni tarkibiy qismlarga ajratish, ular o'rtasidagi boshlanishlarni aniqlash uslubi;

e) bosh g'oyani ajratish metodi — o'quv materialidagi asosiy g'oyani ajratish va saralash, axborotni mantiqiy tugallangan fikrli qismlarga ajratish, asosiy g'oya va ikkinchi darajali fikrlarni ajratish, tayanch so'zlar va tushunchalarni ajratish, asosiy fikr haqida xulosa chiqarish uslubi;

i) qiyoslash metodi — qiyosiy ob’yektlarni aniqlash, ob’yektlarning asosiy belgilarini aniqlash, taqqoslash, o’xshashlik va farqlarni aniqlash, qiyoslash natijalarini shartli belgilar bilan rasmiylashtirish uslubi;

g) umumlashtirish metodi — o’quv materialidagi tipik faktlarni aniqlash, qiyoslash, dastlabki xulosalar, hodisaning rivojlanish dinamikasini tasavvur qilish, umumlashtirish natijalarini shartli belgilar yordamida rasmiylashtirish, umumiy xulosa chiqarish uslublarini o’zida mujassamlashtiradi. Mustaqil ish metodlari guruhiga ko’rgazma vositalari va darslik ustida mustaqil ishlash metodlari kiradi. Ular tarkibiga mustaqil ish topshiriqlarini berish, o’quv faoliyatida mustaqillikni rivojlantirish, o’quv mehnati malakalarini tarkib toptirish, namunaga muvofiq mustaqil ishlarni tashkil etish, ijodiy topshiriqlar berish uslublari kiradi. O’qitish rag’batlantirish va asoslash metodlari guruhiga o’qishga bo’lgan qiziqishni orttirish, didaktik-o’yin, o’quv munozaralari, o’quvchilarning taxsil olishdagi burch va ma’suliyatini shakllantirish metodlari mansub bo’lib, ular quyidagi:

a) o’qishga bo’lgan qiziqishni orttirish metodlari o’quvchilarda ijobiy hissiyotni vujudga keltirish, qiziqarli texnologiyalardan foydalanish, taajjublanish effekti, bilish quvonchini vujudga keltirish, o’quvchilarni rag’batlantirish va tanbex berish uslubi; O’qituvchi o’qitish metodlarining turlarini, ularga mansub uslublarni, foydalanish yo’llarini yaxshi bilishi lozim. Shuni hisobga olgan holda quyida o’qitish metodlarining guruhlari haqida fikr yuritiladi.

O’g’zaki bayon metodlari guruhi o’z ichiga suhbat, hikoya, ma’ruza metodlarini oladi. Quyida shu metodlarning tarkibiga kiruvchi metodik uslublar keltiriladi:

Subbat metodi suhbat savollarini ketma-ketlikda qo’yish, yordam-chi va qo’shimcha savollarni o’z vaqtida berish, o’quvchilarni faollashtirish, o’quvchilar javobidagi xatolarni to’g’rilash, xulosa va umumlashtirishni tarkib toptirish uslubi. Hikoya metodi o’quv materialini jonli, ob’yektlarga xos xususiyatlarni bayon qilish, axborotning ilmiyligi, izchilligi, tushunarlilik, nutqning ravonligi va ifodaliligi uslubi. Ma’ruza metodi o’quv

materialini mantiqiy ketma-ketlikda bayon qilish, muammolarni qo'yish, ob'yektlarni aniqlash, taqqoslash, xulosa chiqarish, umumlashtirish, o'quvchilarning diqqatini jalb qilish uslubi. Ko'rgazmalli metodlar guruhiga tabiiy va tirik ob'yektlar, tasviriy ko'rgazma, ekran vositalari, EHMning ko'rgazmali dasturlari, multimedialarni namoyish qilish metodlari kirib, muayyan holda quyidagi ko'rgazmali vositalarni namoyish qilish, illyustratsiya, demonstratsiya, o'quv kinofilmlari, videofilmlar, EHMning ta'limiy, modellashtirilgan dasturlari, elektron darsliklar, multimedialarni namoyish qilish, ko'rgazmaning did va estetik talablarga javob berishi, dars mazmunini yoritishi, ketma-ketlikda o'quvchilar faoliyatini tashkil etish uslublaridan tashkil topadi. Amaliy metodlar guruhiga kuzatish, tajribani tashkil etish va o'tkazish, amaliy ishni bajarish metodlari kirib, ular mos holda, obyektlarni tanib olish va aniqlash, kuzatish va tajribalar o'tkazish, o'quvchilarga amaliy ishning borishini bayon qilish, amaliy ishlarni bajarish rejasini tuzish, amaliy ish topshiriqlarini bajarilishini nazorat qilish, topshiriqlarni bajarish natijalarini tahlil qilish, o'z-o'zini nazorat qilish, amaliy ish, kuzatish va tajribalarni yakunlash va rasmiylashtirish uslublaridan iborat .

Muammoli izlanish metodlari muammoli vaziyatlarni yaratish, muammoli savollar zanjirini tuzish, muammoli topshiriqlar tuzish va tajribalar o'tkazish, muammoli vaziyatlarni hal etish yuzasidan o'quv farazlarini hosil qilish, o'quv farazlarini isbotlash, ob'yektlarni taqqoslash, mantiqiy mulohaza yuritish, o'quv-tadqiqot tajribalarini o'tkazish, o'quv xulosalari va umumlashmalarini ta'riflash uslublarini o'z ichiga oladi.

b) didakik-o'yin metodi o'yin syujetini tanlash, o'yin vaziyatlarini vujudga keltirish, o'quv-bilishga oid o'yinlarni tanlash, o'quvchilarni rag'batlantirish uslubi;

v) o'quv munozaralari metodi o'quv bahslarini keltirib chiqaradi-gan vaziyatni yaratish, ilmiy bahslarni vujudga keltirish. O'quvchilarni muvaffaqiyatlarga yo'llash, o'quvchilar fikrini bayon qilishi, ular javobidagi xatolarni to'g'rilash, o'quvchilarni rag'batlantirish uslubi;

d) o'quvchilarning tahsil olishdagi burch va ma'suliyatini shakllan-tirish metodi ta'lim-tarbiyaning ijtimoiy ahamiyatini tushuntirish, o'qishning shaxsiy ahamiyatini tushuntirish, o'quv talablarini qo'yish, o'qitishda ragtatlantirish va tanbeh berish kabi uslublarni mujassamlashtiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. J.K Yuldashov .S.A Usmonov “Pedagogik texnologiya asoslari “_ T” O’qituvchi” ,2004
2. A.Q Niyazov “Biologiyani o’qitishda uslubiy qo’llanma”. Ilmiy biologiya faniga oid qo’llanma.